



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 202 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrorova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish	101
Karimova Nargiza Raximovna	



Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida)	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Sherali qizi	



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING O'QUV FAOLIYATIGA MOSLASHISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G'ofurova Madina Ikromjon qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Sobirov Yangiboy Elmurot o'g'li

Toshkent amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi (6–7 yoshli) bolalarning o'quv faoliyatiga va maktab muhitiga moslashishi (adaptatsiyasi) jarayoni, uning pedagogik hamda psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolaning o'yin faoliyatidan tizimli o'quv faoliyatiga o'tishi davridagi ruhiy o'zgarishlar, moslashuv davridagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishda o'qituvchi hamda ota-onalarning o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: adaptatsiya, kichik maktab yoshi, o'quv faoliyati, psixologik tayyorgarlik, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, pedagogik ko'mak.

Abstract: This article analyzes the process of adaptation of primary school-aged children (6–7 years old) to learning activities and the school environment, as well as its pedagogical and psychological characteristics. The psychological changes that occur during the transition from play activities to systematic learning activities, the difficulties encountered during the adaptation period, and the role of teachers and parents in overcoming these difficulties are discussed.

Key words: adaptation, primary school age, learning activity, psychological readiness, cognitive development, motivation, pedagogical support.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс адаптации детей младшего школьного возраста (6–7 лет) к учебной деятельности и школьной среде, а также его педагогические и психологические особенности. Рассматриваются психологические изменения, происходящие в период перехода ребенка от игровой деятельности к систематической учебной деятельности, трудности адаптационного периода, а также роль учителей и родителей в их преодолении.

Ключевые слова: адаптация, младший школьный возраст, учебная деятельность, психологическая готовность, когнитивное развитие, мотивация, педагогическая поддержка.

KIRISH

Bola hayotida bog'chadan yoki uy muhitidan maktab ta'limiga o'tish davri eng muhim inqirozli (krizis) bosqichlardan biri sanaladi. 6–7 yoshli bolalar uchun maktabga qadam qo'yish shunchaki muhitni o'zgartirish emas, balki yetakchi faoliyat turining o'yindan o'qishga o'zgarishidir. Ushbu o'tish davrining muvaffaqiyatli kechishi bolaning keyingi butun ta'lim jarayoniga va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi (6–7 yoshli) bolalar hayotida o'quv faoliyatiga o'tish va maktab muhitiga moslashish jarayoni murakkab, ko'p qirrali va inqirozli (krizis) bosqichlardan biri sanaladi. Bu davrda bolaning nafaqat ijtimoiy maqomi (bog'cha tarbiyalanuvchisidan "o'quvchi" maqomiga), balki uning butun turmush tarzi, kun tartibi va mas'uliyat doirasi tubdan o'zgaradi.

Rus psixologi D. B. Elkonin ta'kidlaganidek, 6–7 yosh inqirozi davrida yetakchi faoliyat turi o'yindan tizimli o'quv faoliyatiga o'tadi. Bu o'tish o'z-o'zidan silliq kechmaydi: bola endi faqat o'ziga yoqqan narsalar bilan emas, balki jamiyat va maktab dasturi talab qiladigan majburiy bilimlarni egallashi, dars intizomiga bo'ysunishi hamda uzoq vaqt davomida bir joyda o'tirib diqqatni jamlashi lozim bo'ladi.

Kichik maktab yoshida bolaning asab tizimi, ruhiyati hamda anatomik-fiziologik imkoniyatlari hali to'liq shakllanib ulgurmagan bo'ladi. Shu sababli yangi ijtimoiy muhitga - sinf jamoasiga, o'qituvchi talablariga va



o'quv yuklamalariga moslashish (adaptatsiya) boladan katta emotsional, kognitiv va fiziologik resurslarni talab etadi. Moslashuv jarayonining qanchalik muvaffaqiyatli kechishi bolaning keyingi yillardagi o'zlashtirish darajasini, bilishga bo'lgan ishtiyoqini (motivatsiyasini) hamda ruhiy salomatligini belgilab beradi.

Pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ushbu bosqichda bolaga to'g'ri yondashish, uning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish va psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash juda muhim. Agar bola maktabga jismonan, aqlan yoki emotsional-irodaviy jihatdan tayyor bo'lmasa, unda maktabga nisbatan salbiy munosabat, xavotir, o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishi va turli psixosomatik kasalliklar bilan namoyon bo'ladigan maktab dezadaptatsiyasi kelib chiqishi mumkin. Shu sababli, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning pedagogik-psixologik moslashuv xususiyatlarini chuqur tadqiq etish, moslashishdagi qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish bugungi zamonaviy boshlang'ich ta'lim va pedagogik psixologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning nazariy asoslarini yoritishda D. B. Elkonin ning ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. Olim kichik maktab yoshida bolaning yetakchi faoliyati o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tishini ta'kidlab, ushbu jarayon bolaning psixik rivojlanishi va yangi ijtimoiy mavqega moslashishida muhim o'rin tutishini asoslagan ^[1].

L. S. Vygotskiy bolaning psixik rivojlanishini ijtimoiy muhit va ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liq holda o'rgangan. Uning ilmiy qarashlarida bolaning rivojlanishida kattalar bilan hamkorlik, pedagogik ko'mak hamda ta'limning rivojlantiruvchi imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi ^[2].

L. I. Bozhovich esa bola shaxsining shakllanishida motivatsion soha, ichki ehtiyojlar va ijtimoiy munosabatlarning roliga e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari maktab yoshidagi bolaning yangi ijtimoiy mavqeni qabul qilishi va o'quv faoliyatiga nisbatan ichki motivatsiyasini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi ^[3].

V. V. Davydov boshlang'ich ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi ta'limning ahamiyatini tadqiq etib, o'quv faoliyatini bolaning tafakkuri va bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida yoritgan ^[6].

G. A. Karpova va A. A. Arxipova tadqiqotlarida esa maktab dezadaptatsiyasi, uning namoyon bo'lish belgilari hamda pedagogik diagnostika masalalariga alohida e'tibor qaratilgan ^[7].

Mahalliy tadqiqotchilardan Z. T. Nishanova va G. K. Alimova bolalar psixologiyasi, bolaning yosh va individual-psixologik xususiyatlari hamda ta'lim jarayonidagi psixologik rivojlanish masalalarini yoritganlar ^[4].

E. G'. G'oziyevning yosh davrlari va pedagogik psixologiyaga oid tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy xususiyatlari va o'quv faoliyati bilan bog'liq psixologik o'zgarishlarga e'tibor qaratilgan ^[5].

G'. B. Shoumarov va Sh. A. Do'stmuhamedova tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari, ularning ta'lim jarayonidagi rivojlanishi va individual jihatlarini o'rganilgan ^[8].

Tahlil qilingan ilmiy manbalarda kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanishi, o'quv faoliyati, motivatsiyasi va maktabga moslashuvi bilan bog'liq masalalar turli jihatlardan yoritilgan. Mazkur maqolaning o'ziga xos jihati kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashish jarayonini pedagogik va psixologik omillar o'zaro bog'liqligida tahlil qilish, moslashuv bosqichlari va dezadaptatsiya belgilarini yoritish hamda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining mazkur jarayondagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlarini nazariy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanishi, o'quv faoliyatiga moslashishi, o'quv motivatsiyasi va maktab dezadaptatsiyasiga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi. Jumladan, D. B. Elkonin, L. S. Vygotskiy, L. I. Bozhovich, V. V. Davydov, G. A. Karpova, A. A. Arxipova, Z. T. Nishanova, G. K. Alimova, E. G'. G'oziyev, G'. B. Shoumarov va Sh. A. Do'stmuhamedovanning mavzuga oid ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Qiyosiy taqqoslash metodi yordamida olimlarning kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyati, psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi va maktab muhitiga moslashuviga oid yondashuvlaridagi umumiy va o'ziga xos jihatlar o'zaro taqqoslandi. Tizimlashtirish metodi asosida maktabga moslashishning psixologik mezonlari, pedagogik shart-sharoitlari, moslashuv bosqichlari va dezadaptatsiya belgilari muayyan guruhlarga ajratildi.

Umumlashtirish metodi orqali o'rganilgan nazariy qarashlar asosida kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga muvaffaqiyatli moslashishiga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik va psixologik omillar umum-



lashtirildi. Bunda bolaning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o'yin va o'quv faoliyatini uyg'unlashtirish, ijobiy rag'batlantirish, emotsional qo'llab-quvvatlash hamda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligini ta'minlash muhim pedagogik-psixologik shartlar sifatida qaraldi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo'lib, unda alohida eksperimental guruhlar yoki statistik tajriba-sinov natijalari qo'llanilmadi. Shu sababli tadqiqot natijalari mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabga moslashishning psixologik mezonlari

Kichik maktab yoshida bolada psixik jarayonlar va shaxsiy sifatlarning qayta qurilishi yuz beradi. Psixologik moslashuv bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. **Iroda va ijtimoiy tayyorgarlik:** Boladan ixtiyoriy diqqat, o'z xatti-harakatlarini boshqarish hamda kun tartibiga rioya qilish talab etiladi. Diqqatning bevosita (ixtiyorsiz) shaklidan ixtiyoriy shakliga o'tishi sekin-asta kechadi.
2. **Kognitiv (bilish) jarayonlari:** Mantiqiy fikrlash, eslab qolish va tasavvur qilish qobiliyatlari jadal rivojlanaadi. Biroq bu yoshda ko'rgazmali-obrazli fikrlash hali ham yetakchi o'rin tutadi.
3. **Motivatsion soha:** Bolaning maktabga borish istagi faqat tashqi atributlar (portfel, forma, daftar) bilan emas, balki ichki o'quv motivatsiyasi (yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish) bilan belgilanishi zarur.

Pedagogik shart-sharoitlar va moslashuv bosqichlari

1. **Ilg'or (orientatsion)** - yuqori darajadagi ruhiy va jismoniy zo'riqish. Bola yangi talablar va qoidalarni o'rganadi. Bu davrning davomiyligi 2–3 haftani o'z ichiga oladi.
2. **Nostabil moslashuv** - bola yangi sharoitlarga ko'nikadi, lekin xatti-harakatlarida tebranishlar va tez charchash kuzatiladi. 3–6 hafta davom etadi bu davr.
3. **Nisbiy barqarorlik** - o'quv faoliyati odatiy tusga kiradi, emotsional holat barqarorlashadi. 1–2 oy va undan ortiq davom etadigan davr hisoblanadi.
O'quv faoliyatiga moslashuv pedagogik nuqtai nazardan uchta asosiy bosqichda kechadi:

Moslashuvdagi qiyinchiliklar va dezadaptatsiya simptomlari

Ba'zi bolalarda maktabga moslashish jarayoni qiyin kechishi va dezadaptatsiya holatlari kuzatilishi mumkin. Uning asosiy belgilari:

1. **Emotsional buzilishlar:** Xavotirlanish, agressiya, yig'loqilik yoki, aksincha, o'ziga berkitilish.
2. **Fiziologik o'zgarishlar:** Tez charchash, uyqu va ishtahaning buzilishi, tez-tez kasal bo'lish.
3. **O'quv faoliyatidagi sustlik:** Topshiriqlarni bajarishdan bosh tortish, diqqatni jamlay olmaslik.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlash uchun quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish lozim:

1. **O'yin va o'quv unsurlarini uyg'unlashtirish:** Boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida interaktiv va o'yin texnologiyalaridan unumli foydalanishlari zarur.
2. **Ijobiy rag'batlantirish:** Bolaning hatto kichik yutuqlarini ham e'tirof etish, uni boshqa bolalar bilan solishtirmasdan, faqat o'zining avvalgi natijalari bilan taqqoslash kerak.
3. **Ota-onalar va maktab hamkorligi:** Uyda bolaga kun tartibini to'g'ri tashkil etish, ortiqcha ruhiy bosim o'tkazmaslik va emotsional qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishi tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Pedagogik va psixologik omillarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi bolaning nafaqat o'qishdagi muvaffaqiyatini, balki uning psixologik va jismoniy salomatligini ham ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishi – bu shunchaki kitob-daftar ko'tarib maktabga borish yoki qoidalarni yodlab olish emas. Bu bola hayotidagi eng katta burilish, kichik murakkab dunyodan katta mas'uliyatli dunyoga qo'yilgan ilk qadamdir. Tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlarim shuni ko'rsata-



diki, 6–7 yoshli bola uchun maktab partasi orqasida 45 minut qimirlamay o'tirishning o'zi haqiqiy qahramonlikdir. Biz ko'pincha ulardan birdaniga kattalarcha jiddiylik va intizomni talab qilib qo'yamiz, lekin ularning qalbi hali ham o'yinchoqlari va erkinligi bilan bog'liq bo'ladi.

O'z amaliyotim va izlanishlarim davomida guvohi bo'ldimki, moslashuv jarayonida bolaning necha olgani yoki harflarni qanchalik chiroyli yozgani emas, balki uning maktabga qanday kayfiyatda borayotgani va u yerdan qanday emotsiya bilan qaytayotgani hal qiluvchi rol o'ynaydi. Parta ortida ko'zlari qo'rquv bilan mo'ltillab turgan bolani faqat qattiq intizom emas, balki o'qituvchining samimiy tabassumi, kichik bir maqtovi va o'z vaqtida berilgan dalda tinchlantira oladi. Agar biz o'quvchini moslashuv davrida tushunmasak, uni baho uchun o'qiydigan yoki maktabdan bezigan shaxsga aylantirib qo'yishimiz hech gap emas.

Xulosa o'rniida aytishim mumkinki, bolaning maktabga muvaffaqiyatli moslashuvi - bu pedagog, psixolog va ota-onaning bir yoqadan bosh chiqarib ko'rsatadigan sabr-toqati mahsulidir. Biz bolaga tayyor bilim beruvchi manba emas, balki ushbu sinovli va qiziqarli yo'lda uning eng yaqin sirdoshi va suyanchi bo'lishimiz kerak. Zero, bolaligini boy bermay, o'qishni yaxshi ko'rib qolgan bola kelajakda har qanday qiyinchilikni va bilim cho'qqilarini sabr va ishtiyoq bilan zabt eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эльконин Д. Б. Детская психология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - Москва: Издательский центр "Академия", 1989.
2. Выготский Л. С. Психология развития человека. - Москва: Изд-во Эксмо, 2005.
3. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. - Санкт-Петербург: Питер, 2008.
4. Nishanova Z. T., Alimova G. K. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.
5. G'oziyev E. G'. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. - Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2010.
6. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. - Москва: ИНТОР, 1996.
7. Карпова Г. А., Архипова А. А. Педагогическая диагностика школьной дезадаптации. - Екатеринбург: УрГПУ, 2009.
8. Shoumarov G'. B., Do'stmuhamedova Sh. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.